

# ZAMONAVIY SHAROITDA BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MAKTABGA TAYYORLASH MASALALARI

**Mirzayeva Shoxista Yoqubovna**

*QDPI Maktabgacha ta'lism yo'naliши 2bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Maktabgacha davr bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganishi haqida, Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta'lism-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo'lishi haqida, Bolalar o'z tabiatlariga ko'ra haddan tashqari qiziquvchan bo'lishi haqida, maktabgacha ta'lism bolalarini tafakkurini oshiruvchi mashqlar va qiziqarli o'yinlar haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *bolalar, ta'lism, tarbiya, tafakkur, o'itish, qiziqtirish, tayyorlash, mashqlar, o'yinlar, ma'naviyat.*

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson qalbini kichiklikdan boshlab yaxshilik, olıyjanoblik, insonparvarlik, odamgarchilik, aql-idrokli bo'lism, odob-axloqlilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, so'zamollik, xushso'zlilik, ilmli bo'lism kabi xislatlar bilan boyitish inson kamolotining me'yori bo'lib kelgan. Chunki komil insonning ma'naviyati yuksak bo'ladi Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan kishi esa o'z xalqining tarixi, urfodati, qadriyati hamda an'analari, madaniyatini chuqur biladi va unga rioxaya qiladi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lism tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lism vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Ushbu tizim oldiga maktabgacha ta'lism sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lism muassasalarini davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lism muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lism-tarbiya jarayonlariga zamонавиy та'lism dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi.

Maktabgacha davr bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganish, bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan davridir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta'lism-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiya ta'sir qiladi. Shunday ekan, bolalar tafakkurini rivojlantirish asosiy vazifalardan biriga aylanadi.

Tasavvur etish, tafakkurning rivojlanishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar mashg'ulotlaridagi asosiy vazifalardan biri – bola miyasida buyum va hodisalar haqidagi axborotni tasavvur ettirish. Masalan, rasm chizish, turli o'yinlar, kubiklardan biron-bir narsa yasash orqali bola ana shu axborotni tafakkurida rivojlaniradi. Ushbu tafakkur turi boshqa tafakkur turlariga asos bo'lib, so'z boyligi, mantiqiy tafakkurning shakllanishi, kelajakdagagi maktab darslarini a'lo darajada o'zlashtirishda ko'maklashadi.

Bolalar o‘z tabiatlariga ko‘ra haddan tashqari qiziquvchan bo‘ladi. Ular hamma narsani bilishi juda zarur: ta’mini tatib ko‘rishi, ushlab ko‘rishi, tushunarsiz va yangi bo‘lgan narsalarga o‘z tushuntirishlarini o‘ylab topishi, tajriba o‘tkazib ko‘rishi va o‘z farazlarini tekshirishi. Har bir ota-onasi o‘z farzandiga uni o‘rab turgan olamni tanishiga yordam berishi zarur. Bola 3 yoshigacha asosan predmet va harakatlarning nomlarini o‘zlashtiradi. Nomlar asosan uning vazifasini anglatib, bu predmet yoki harakatning tashqi ko‘rinishi o‘zgarsa ham uning nomi o‘zgarmaydi. Shuning uchun ham bola predmetlarning nomlari ishlatilishini vazifalariga bog‘lagan holda tez o‘zlashtiradi.

Bola tug‘ilishidanoq tafakkur qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Ayrim olimlar bola tafakkurini maymun tafakkuriga o‘xshatadilar psixologlarning maymun tafakkuri haqidagi nazariyasi haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Bola tug‘ilishi bilan insondir, u insonlar jamiyatida yashaydi, insonlar bilan munosabatda bo‘ladi, ularning ta’sirida o‘sadi. Bola tafakkuri avval boshdan inson tafakkuridir. Boladagi tafakkur asta sekinlik bilan, bilimli va tajribani ortishi, yashash sharoiti va oladigan ta’lim – tarbiyasining ta’siri ostida o‘sib oradi. Bola dastlab tashqi olamni va uydagi narsalarni sezish, idrok qilish orqaligina bilib oladi.

Bolalar kattalar yordamida insoniyat yordamida yaratilgan bilim va tushunchalarni egallab oladilar. Bolalarda tafakkur 1 yoshga to‘lgandan so‘ng namoyon bo‘la boshlaydi. 1 yoshdan oshib tili chiqqach o‘ziga yaqin narsalarning nima uchun kerakligini tushunadigan bo‘lib oladi. 2 yoshli bola tafakkurining eng ko‘zga tashlangan xususiyati, ular analiz qilishi va umumlashtirishi.

Bog‘cha yoshi davriga kelib bolada tafakkur turlari ham taraqqiy eta boshlaydi. Bog‘chaning kichik guruuhlarida bolaning tafakkuri – ko‘rgazmali harakat tafakkuridan iborat bo‘ladi. Bola bilayotgan ob‘ektlarni o‘z qo’llari bilan timirskilab, “amaliy harakat” orqali bo‘laklarga ajratib quradi, idrok qilayotgan narsalarni birlashtiradi, solishtiradi va taqqoslaydi, analiz, sintez qiladi. Masalan: bola o‘z o‘yinchog‘ini “ichida nima borligini” bilish maqsadida bo‘lak – bo‘lak qilib sindirib, uni analiz qiladi: kubiklardan “uy” yasab sintez qiladi. Bog‘cha yoshi bolalarida ko‘rgazmali, obruzli – tafakkur xukmron bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik va estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rtalikta tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

- Maktabgacha ta’lim-tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlashni nazarda tutadi - deb ko‘rsatilgan.

Maktabgacha ta’limda bolani har tomonlama rivojlantirish, uning umumiy ta’limda erishiladigan sezilarli yutuqlariga asos bo‘ladi. Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Boshlang‘ich ta’limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 999-sonli qarorini ijro etish doirasida davlat o‘z zimmasiga 6-7 yoshli bolalarning maktabga to‘lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo‘yicha majburiyatini oldi. 6-7 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlari, bolalarini to‘liq kunli maktabgacha ta’lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo‘lmasan yoki muayyan sabablarga ko‘ra, bolasini maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bermagan ota-

onalarning talab-ehtiyojlarini qondirishiga va istisnosiz barcha bolalarning ta'lif olish va rivojlanishga teng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda maktab ta'lifiga tayyorlash hamda unda savodxonligini rivojlanirish quyidagi talablarga bo'ysunadi.

- bolani rivojlanirishga qaratilgan qulay, do'stona, xavfsiz muhitni yaratish. Bolalar jamoasida do'stona munosabatni qadrlash. Bolaga yo'naltirilgan ta'limga yondashuv asosida ta'lif -tarbiya berish, uzoq davom etadigan mashg'ulotlar bilan emas, balki bolada qiziqishni uyg'otadigan, uni hayratlaniradigan o'yinlardan iborat ta'lifiy jarayonlarni tashkil etish. O'yindan asosiy ta'lifiy faoliyat sifatida foydalanish. Didaktik vositalarni keng qo'llash.

- bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning xotirasi, diqqati, nutqi, tafakkurini inobatga olish. Bolada o'qishga nisbatan xohish, istak, qiziqish uyg'otish. Kattalar tomonidan bolaga bosim o'tkazish, uning erishgan natijalaridan qoniqmaganlikni bildirish man etiladi.

- olib boriladigan ta'lif va tarbiyaviy jarayonlar ketma-ketlikda, oddiydan murakkablashib borishi zarur.

- tizimli ravishda bolada kichik yosh davridan boshlab so'zlarni to'g'ri talaffuzini rivojlanirish. Tarbiyachi o'z nutqiga nisbatan talabchan bo'lishi.

- bolalarda o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan va yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalana olishga bo'lgan ishonchni hosil qilish kabilar bunga misol bo'la oladi.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Bolalarning elementar matematik tasavvurlarini rivojlanirish. Bolalar bog'chalari uchun dastur. Tuzuvchilar: N.Bikbaeva, T.Umarova. Toshkent, O'zPFITI, 2015.
2. Abidova L. MTMda matematika mashg'ulotlarini tashkil etishda qiziqarli matematikaning o'rni// Zamonaviy ta'lif jurnali. №2. 2005.
3. Mirjalolova L. Bolalarning so'z boyligini ertaklar asosida oshirish. - Toshkent, 2008.
4. Mavru洛ov A. Ma'anaviy barkamol inson tarbiysi. - Toshkent: O'zbekiston, 2008.
5. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. - Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
6. Қодирова Ф., Тошпўлатова Ш., Аъзамова М. Мактабгача педагогика. - Тошкент: "Маънавият", 2013.